



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026

3-JILD 1-SON



YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

TO'PLAMI

3 - JILD, 1 - SON

2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



Abdurahmon jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari

Soliyeva Shaxinabonu Jamshid qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari va ularning ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil etiladi. Allomaning fazilat, odob, kamtarlik va komillik haqidagi qarashlari zamonaviy ta'limda o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim manba sifatida baholanadi. Jomiyning badiiy va tasavvufiy merosi orqali yosh avlodda iymon-e'tiqod, mas'uliyat va insonparvarlik tushunchalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda Jomiy hikmatlaridan foydalanishning samarali yo'llari, ularning tarbiyaviy natijalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Jomiy, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, pedagogik integratsiya, tasavvufiy g'oyalar, barkamol shaxs, ta'lim-tarbiya.

KIRISH. Faqat foydasi tegadigan ilmni olish kerak, foydasiz fazilatdan qochmoq va faqat zarur narsaga quloq ochmoq lozim."(Abdurahmon Jomiy).

Buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va uni zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish nihoyatda muhimdir. Xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkirlar – Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, al-Farobiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa allomalar o'z davrida insonparvarlik, ezgulik, ilm va axloq masalalariga oid yuksak g'oyalarni ilgari surganlar. Ularning ma'naviy merosi nafaqat diniy yoki adabiy qadriyat sifatida bugungi tarbiya tizimi uchun ham mustahkam ma'naviy asos vazifasini o'taydi.

XV asrning buyuk mutafakkiri, allomai va tasavvuf olimi Abdurahmon Jomiy ana shunday ma'naviy-ma'rifiy meros egalariidan biridir. U o'z asarlarida insonning kamolotga erishuvi, axloqiy poklanish, sabr, adolat, mehr-oqibat, halollik, bag'rikenglik, ilmga muhabbat va iymon kabi yuksak fazilatlarini targ'ib etgan. Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Sabhat ul-abror”, “Yusuf va Zulayho”, “Nafahot ul-uns” kabi asarlarida inson qalbi va ruhining tarbiyasi, axloqiy yuksalish yo'llari, komil inson timsoli chuqur falsafiy tahlil etilgan.

METODLAR. Abdurahmon Jomiy hayoti, faoliyati va adabiy merosiga respublika va xorijda ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, asarlar bag'ishlangan. Ayniqsa, olimlar A.Afsahzod, I.Batyanov, A.N.Boldirev, I.N.Beryozin, I.S.Braginskiy, J.Bobokalonova, V.Derjavin, I.X. Karimova, F.Hadizoda va boshqalar o'z asarlarida olimning adabiy merosini tadqiq qilganlar.

Bugun ham allomaning bebaho asarlari har doimgidek dunyo ahli e'tiborini o'ziga tortadi, chunki Abdurahmon Jomiy hayotligida ham yetuk ilm-fan arbobi, qomusiy olim va buyuk mutafakkir, ma'naviyat ustoz sifatida alohida obro' va shon-sharafga ega edi.

Alloma ijodi g'azal, hikoyat, doston, qasida yetakchilik qilib, lirik va axloqiy janrlar yaratishda Jomiy o'ziga xos iste'dodga ega. "Haft avrang" asari uning eng yirik axloqiy-didaktik asari hisoblanib, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusravi Dehlaviyning „Xamsa“sidan keyin yozilgan va bu bilan alloma „Xamsa“ hikoyalari sonini 7 taga yetkazgan. „Haft avrang“, „Silsilat-uz-zaha“, „Sulaymon va Absol“, „Tuhfat-ul-ahror“, „Sabhat-ul-abror“, „Yusuf va Zulayho“, „Layli va Majnun“ va „Iskandariy hikmat“ kabi asarlari ezgulik, pok muhabbat, olijanoblik, adolat va yuksak insoniy axloqni targ'ib etishga bag'ishlangan.

NATIJALAR. Jomiy asarlarida insonning ma'naviy olami, uning ichki kechinmalari, hayotiy qadriyatlari teran tasvirlangan. „Yusuf va Zulayho“ dostonida mehr muhabbat, sabr-toqat, sadoqat kabi insoniy fazilatlar ulug'lansa, „Layli va Majnun“da sadoqat, oshiqlik, ruhiy komillik masalalari ko'tarilgan. „Xiradnomai Iskandariy“da esa davlat boshqaruvi, odil shohlik sirlariga doir qarashlar bayon etilgan. Jomiy asarlarida tasvirlangan qadriyatlar va axloqiy tamoyillar umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Jomiy asarlarida davr ma'naviyati va axloq masalalari ham keng yoritilgan. „Bahoriston“ asarida Jomiy o'z davrining ijtimoiy muammolariga munosabat bildirgan. Jamiyatdagi axloqiy-ma'naviy nuqsonlarni tanqid qilgan. Mutaфakkir asarlarida komil inson g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, u yuksak axloq, ma'rifat va ma'naviyat sohibi sifatida talqin etiladi.

Abdurahmon Jomiy ijodi va jahon adabiyotida „Bahoriston“ ma'rifiy asari alohida o'rin tutadi. „Bahoriston“ sakkiz bobdan iborat bo'lib, har bir bob kichik axloqiy hikoyalarni o'z ichiga oladi. Donishmandlar hikoyalari, buyuklarning nasihat va hikmatlari, adolati, ezgu insoniy axloqi asarning asosiy mavzularini tashkil etadi. Olimlarning fikricha, bu asar birinchi navbatda Jomiy tomonidan o'g'lining tarbiyasi uchun yaratilgan bo'lib, adib bu asarida tarbiya mavzusida qimmatli fikr va mulohazalarni bildirgan.

MUNOZARA. Abdurahmon Jomiy „Bahoriston“ turkum hikoyalarida ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, ilmning cheksiz dengiz ekanligini, uning shoxlari ko'p ekanligini ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, inson o'ta zarur bo'lgan ilmni to'liq o'rganishi kerak. Bundan tashqari, inson o'rgangan ilmni amalda qo'llashi kerak. Jomiy asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda tasvirlangan shaxsiy qadriyatlar, davr ma'naviyati va axloq masalalari bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Jomiy asarlaridagi axloqiy tamoyillar, qadriyatlar va g'oyalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Jomiy tasvirlagan sadoqat, mehr-muhabbat, sabr-toqat kabi fazilatlar bugungi kunda ham insoniy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Mutaфakkirning ijtimoiy adolat, ma'rifatparvarlik g'oyalari ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jomiy ilgari surgan komil inson tushunchasi bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Abdurahmon Jomiy asarlaridagi ma'naviy-axloqiy g'oyalardan foydalanish yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari orqali yoshlarda insoniy fazilatlar, mehr-oqibat, sabr, shukur, halollik, adolat kabi qadriyatlar shakllanadi. Bugungi globallashuv davrida



ayrim yoshlar orasida begonlashuv, milliy qadriyatlarga befarqlik, ma'naviy bo'shliq, axloqiy inqiroz holatlari kuzatilmoqda. Bunday sharoitda Jomiy kabi mutafakkirlarning hikmatlari, axloqiy saboqlari yoshlarning qalbida ezgulikka intilish, to'g'rilik, halollik, e'tiqod va vijdoniylikni mustahkamlashda qudratli ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - Dushanbe: "Adib", 1987. B.160.
2. Islom ensiklopediyasi. Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida. T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 169- bet.
3. Бертельс Е. Э., 1965 . Бертельс Е. Э Навои и Джами. - М., 1965, "Избранные труды". - 195 с.
4. Barotov A. Abdurahmon Jomiy ijodida shaxs kamoloti'. // Research International Scientific Journal, Uzbekistan. Research Focus ISSN:2181-3833
5. Farruhbek Olim. "Hamsat ul-mutahayyirin" da Jomiy siyomosi. // O'zbek tili va adabiyoti, 2010, №2.
6. Akbarov Yusuf. Talabi hayot va qismati adabiyot. Dushanbe, 1977.

